



NARPAY TUMANIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA AHOLI XOHISH ISTAKLARI

¹Gulnora Mardiyevna Shadiyeva

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, i. f. d. Prof,

²Zafar Shuhrat o'g'li Isoqulov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali magistri.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7781007>

ARTICLE INFO

Received: 19th March 2023

Accepted: 27th March 2023

Online: 28th March 2023

KEY WORDS

Kambag'allik, kichik biznes, tadbirkorlik, oilaviy biznes, bandlik, ishsizlik, imtiyozli kredit.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Narpay tumanida kambag'al oilalarning doimiy daromad manbaini yaratish va kichik biznesni rivojlantirishning ilmiy asoslari, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar va jamoatchilik fikri tahlili Samarqand viloyati Narpay tumani misolida yoritilgan.

Mana uch yildan oshibdiki kambag'allikka qarshi kurashish mamlakatimizda o'ta dolzarb masalalar sirasiga kirib bo'ldi. 2020-yilning boshida O'zbekiston tarixida ilk marotaba kambag'allik tushunchasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ko'tarilib, mazkur yo'nalish ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy kun tartibiga aylandi. Kambag'allikka qarshi kurash masalasi global masala bo'lganligi tufayli BMT Bosh Assambleyasi kambag'allikka qarshi kurash bo'yicha o'n yilliklarni e'lon qilib, tegishli tadbirlarni amalga oshirib kelinmoqda. Birinchi o'n yillik o'z ichiga 1998- 2007-yillarni qamrab olgan bo'lsa, ikkinchi o'n yillik 2008-2017-yillarga to'g'ri keldi. Endi esa uchinchi o'n yillikka mo'ljallangan 2018-2027-yillarni qamrab oladigan Rezolyutsiyasi qabul qilindi. Ushbu Rezolyutsiyada oldingi o'n yillikda erishilgan natijalar darajasini saqlab qolgan holda kambag'allik bilan kurashishni takomillashtirish hamda uni mustahkamlash yo'lida samarali va muvofiqlashtirilgan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgandir. Bunga asosan juda ko'plab mamlakatlar ham kambag'allikdan butunlay qutilish rejalarini ishlab chiqqan.

Ushbu yo'nalishda ijobiy natijalarga erishgan rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib so'nggi yillarda mamlakatimizda muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan kambag'allikni bartaraf etish yuzasidan qator Farmon va qarorlar qabul qilindi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi "Iqtisodiyotni kambag'allikni qisqartirishga oid Davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5975-sonli farmoni va ushbu farmon ijrosini ta'minlash maqsadida 2020-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Respublikasi "Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi. Ushbu hujjatlarda tadbirkorlik muhitini yaxshilash, o'zini o'zi ish bilan band qilish orqali mamlakatda kambag'allikni qisqartirishga erishish bo'yicha vazifalar belgilandi. Bu vazifalarning bajarilishi yuzasidan respublikamizda bir qator o'zgarishlar



amalga oshirildi, bu o'zgarishlar orqali xalqimizning har bir fuqarosi davlatimiz e'tiborida ekanligini va ularning roziligini olish birinchi o'rinda turishini amalda ko'rsatib o'tdi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrda "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-29-sonli Farmoni hamda 2021-yil 3-dekabrda "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-31-sonli qarorlari qabul qilindi. Ushbu Farmon va qarorlar asosida har bir tuman va shaharlar mahallalarida hokim yordamchilari o'z ish faoliyatlarini boshladilar va kambag'allikni qisqartirish uchun o'zlariga berilgan vakolatlardan to'laqonli foydalangan xolda faoliyatlarini boshladilar. Bu o'zgarishlar Narpay tumanini ham chetlab o'tgani yo'q. Narpay tumanida ham 57 ta mahallada mavjud imkoniyatlardan maksimal foydalangan xolda kambag'allikni qisqartirish borasida barcha chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Kambag'allik haqida qisqacha ma'lumot beradigan bo'lsak Jahon banki tomonidan kambag'allik tushunchasiga quyidagicha ta'rif keltirilgan: "kambag'allik" - bu shaxs yoki ijtimoiy guruhning iqtisodiy ahvoriga xos xususiyat bo'lib, ular hayot, mehnat qobiliyatini saqlab qolish va o'zidan avlod qoldirish uchun zarur bo'ladigan minimal ehtiyojlarning ma'lum miqdorini qondira olmaydi.

Kambag'allikning ikki tomoni bor: iqtisodiy (shaxsni zarur ozuqa va vositalar bilan ta'minlanganlik darajasi bilan bog'liq) va ijtimoiy (shaxsni hayot tarzi va axloq me'yorlari, madaniyati bilan bog'liq). Dunyo mamlakatlarida kambag'allik turlicha ko'rinadi:

1. Jahonning eng rivojlangan davlatlardan biri Xitoyda kambag'allik mamlakat aholisining 65% ini tashkil etadi;

2. AQSHda esa jami taxminan 16% aholi kambag'al hisoblanadi. Amerikada "Kambag'al ishchi odam" degan tushuncha bor. "Kambag'allik" har doim ishsizlik bilan bog'liq.

3. Yaponiya iqtisodiy qudrati jihatidan dunyodagi uchinchi yirik davlati hisoblanadi.

Lekin har yili mamlakatda kambag'allik darajasi o'sib bormoqda. Buning asosiy sababi - ishsizlik. Har oltinchi Yapon kambag'al hisoblanadi. Jahon tajribasida keng qo'llaniladigan kambag'al oilalarning doimiy daromad manbaini yaratish, inson kapitali sifatini oshirish hamda to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlash kabi quyidagi **3 vosita**dan foydalanilmoqda:

Birinchi vosita: kambag'al aholining doimiy daromad manbaini yaratish;

Ikkinchi vosita: inson kapitali sifatini oshirish;

Uchinchi vosita: kambag'al oilalarga to'g'ridan-to'g'ri moddiy va nomoddiy yordam ko'rsatish.

Ammo ushbu 3 vositaning o'ziga xos jihatlari, ijobiy va salbiy tomonlari mavjud.

"Kambag'al aholining doimiy daromad manbaini yaratish" vositasi qolgan ikki vositaga nisbatan bir muncha optimal yechim. Sababi bu vosita davlat byudjetiga katta yuk bo'lmaydi. Qolaversa bu vosita o'z natijasini qisqa vaqtda beradi va aholini iqtisodiy faolligini oshishiga hamda ulardagi boqimandalik kayfiyatini pasayishiga sabab bo'ladi.

Ammo kambag'al aholining doimiy daromad manbaini yaratish vositasida ham ayrim noqulay jihatlari mavjud. Masalan, mazkur yo'nalishni tez suratlarda rivojlanishi uchun soliq imtiyozlari berish zarur, bu byudjetga tushumni keskin kamayishi olib kelishi mumkin.



Shuningdek, sohani rivojlantirish uchun avvalo aholini tadbirkorlik borasidagi ko'nikmalari va iqtisodiy faolliklarni oshirish ularning ularning uzoq yillar davomida shakllangan madaniyat bilan bog'liq va bu katta to'siq bo'lishi mumkin. Bundan tashqari taklif etilayotgan xizmatlar va tovarlar uchun bozor, ya'ni talab zarur, buning uchun esa iste'molchilarda to'lov quvvati shakllanishi kerak. Bu esa bir muncha vaqt talab etuvchi jarayonlar demakdir.

Ushbu masalada 2023-yil 25-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida **“Kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash hamda kichik biznesni rivojlantirishga qo'shimcha sharoitlar yaratish chora-tadbirlari”** yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida **“Kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha” 2023-yil uchun rejalar muhokama qilindi.**

Ushbu yig'ilishda davlatimiz rahbari kambag'allikni qisqartirish milliy siyosat darajasiga olib chiqilganini ta'kidladi. Natijada, o'tgan 2022-yilning o'zida kambag'allik darajasi 17 foizdan 14 foizga tushgani, bunda hokim yordamchilari **1 million** nafar aholini kasb-hunarga o'qitib, tadbirkorligini boshlashga ko'maklashgani, daromadli ish bilan band qilgani muhim omil bo'lgani qayd etildi.¹

O'zbekiston hukumati kambag'allikni qisqartirishga jiddiy e'tibor qaratib, ayniqsa aholi bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish va buning uchun imkoniyat va imtiyozlar berish maqsadida huquqiy asosni mustahkamlamoqda.

NATIJALAR:

Yuqoridagilardan kelib chiqib mamlakatda kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini yuksaltirish uchun Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek **“Eng asosiysi, bu islohotlar natijasida xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berishimiz kerak. Odamlarimiz yetarli daromad topishi uchun eng qulay biznes va investitsiya muhitini shakllantirib, yangi-yangi korxonalar va ish joylarini ko'paytirishimiz zarur”**.

Mahalladagi oilalar, ayniqsa kam ta'minlangan va daromadi past aholi turmush darajasini yaxshilashga ko'maklashish maqsadida Samarqand viloyati Narpay tumanida tuman hokimligi ko'magida hokimlikning rasmiy telegram kanali **Narpay.uz** ijtimoiy tarmog'i orqali so'rovnoma o'tkazildi². So'rovnoma o'tkazilgan rasmiy kanalda 11 mingdan oshiqroq kuzatuvchilar bor. So'rovnoma doirasida aholi o'rtasida daromad manbalari borasidagi tushunchalari va ularning imkoniyatlarini aniqlash maqsadida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomaning jami ijtimoiy tarmoqda 6261 nafar fuqaro kuzatgan, shundan jami 1043 nafar aholi vakillaridan iborat respondentlar ishtirok etdi, tahlilda 1043 ta so'rovnomadan foydalanildi.


Tadqiqot davomida aholidan oilaning asosiy daromad manbai, qo'shimcha daromad manbai va yana qanday daromad manbalarini topishni rejalashtirayotgani hamda bunga nimalar to'sqinlik qilayotgani to'g'risidagi fikrlari so'ralgan.

¹ 2023-yil 25-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida **“Kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash hamda kichik biznesni rivojlantirishga qo'shimcha sharoitlar yaratish chora-tadbirlari”** yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidan.

² <https://docs.google.com/forms/d/1oSLiZ4QdeGvtqSir90fMu-o7AolCcljd2k6q6Cq0pKY/edit?pli=1#responses>


Маълумотингиз:

1,043 responses




Ёшингиз:

1,043 responses



Оила аъзоларингиз сони:

1,043 responses




Jumladan, respondentlarning asosiy qismi **18-40 yosh** oralig'ida, **62,2** foizi **o'rta ma'lumotga** ega bo'lgan hamda **oilada 4-6 nafar kishi** yashaydigan fuqarolar ekanligi aniqlandi.(1-rasm)

Respondentlarning yoshi, ma'lumoti hamda oila a'zolarining soni to'g'risida.1-rasm.³

Oilaning asosiy daromad manbalari nimalardan iborat ekanligi so'ralganda ularning aksariyati asosiy daromad manbai tomorqadan (dehqonchilik, chorvachilik, parranda, asalarichilik) hamda ish haqi ekanligini ma'lum qilishgan. Ya'ni, bu umumiy respondentlar soniga nisbatan 27,6 % tomorqadan (dehqonchilik, chorvachilik, parranda, asalarichilik)ni va ish haqi 26,4% ni tashkil etgan. 11,2 % savdogarlik, 9,9 % xunarmandchilik hamda 24,9% boshqa daromad manbai ekanligini bildirishgan. E'tiborlisi, respondentlarning faqat 27,6 % tomorqa (dehqonchilik, chorvachilik, parranda, asalarichilik) tanlashgani tumanda dehqonchilikni rivojlantirish imkoniyati kattaligini bildiradi. Ishtirokchilarning 3% asosiy daromad manbalari sifatida "kasanachilik" yoki "aksiya dividendlari" kabi javob variantlarini belgilashgan, bu esa aholining bunday daromad manбайдan foydalanish darajasi past ekanligini ko'rsatadi.

Oilalarning asosiy daromad manbalari?

1,043 responses



Oilalarning asosiy daromad manbalari. 2-rasm.⁴

Respondentlardan qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'lish borasidagi istaklari so'ralganda ularning ko'pi, aniqrog'i 32,2 foizi qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'lish istagini bildirishgan va shu javob variantini tanlashgan. 25,9 foizi esa imkoniyati yo'qligi sababi istamasligini bildirgan va shu javob variantini tanlashgan, 28,6 foizi esa asosiy ishidan topayotgan daromadi yetarli bo'lganligi sababli qo'shimcha daromad topishni istamasligini bildirishgan. So'rovnomada ishtirok etgan aholining faqatgina 13,3 % qo'shimcha daromad manbaiga ega ekanligini ma'lum qilmoqda. (3-rasm)

³ <https://docs.google.com/forms/d/1oSLiZ4QdeGvtqSir90fMu-o7AolCcljd2k6q6Cq0pKY/edit?pli=1#responses>

⁴ <https://docs.google.com/forms/d/1oSLiZ4QdeGvtqSir90fMu-o7AolCcljd2k6q6Cq0pKY/edit?pli=1#responses>

Сиз, асосий ишингиз (даромадингиз)дан ташқари қўшимча даромад манбаига эга бўлишни истайсизми?


1,043 responses



Fuqarolarning asosiy daromadidan tashqari qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'lish borasidagi istaklari. 3-rasm.⁵


So'rovnoma ishtirokchilaridan qo'shimcha daromad olish uchun qanday imkoniyatlar bor ekanligi haqida so'ralganda, uy sharoitida qoramol boqish (25%), parrandachilik (19%), uy sharoitida savdogarlik (12%) hamda respondentlarning ko'pchiligi ish haqi orqali daromad qilganligi sababli dehqonchilik (7%) bilan shug'ullanish imkoniyati borligini ma'lum qilishgan.(4-rasm)

QO'SHIMCHA DAROMAD OLISH UCHUN QANDAY IMKONIYATI BORLIGI TO'G'RISIDA



Qo'shimcha daromad olish uchun qanday imkoniyati borligi to'g'risida. 4-rasm⁶

⁵ <https://docs.google.com/forms/d/1oSLiZ4QdeGvtqSir90fMu-o7AolCcljd2k6q6Cq0pKY/edit?pli=1#responses>



Yuqoridagi so'rovnomalar natijasidan ko'rinib turibdiki, aholining aksariyati qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'lishni istasada, ammo ularning ushbu tashabbuslariga turlicha omillar to'sqinlik qilmoqda.

- Tomorqa yer maydoni (kichik, unumdor emas)
- Oqar suv etarli emas
- Asbob-uskuna yo'q
- Bino inshoot yo'q
- Tabiiy gaz va elektr energiyasi etarli emas
- Malaka etarli emas
- Bozorda talab yo'q
- Mablag'im yo'q
- Xom-ashyo yo'q
- Boshqa

Quyidagi diagrammada aholining qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'lishida qanday omillar to'sqinlik qilayotganligi to'g'risidagi fikrlari o'rganildi. Bunda respondentlarning fikrlariga ko'ra (15,6%) oqar suvning yetarli emasligini, (14,6%) asbob-uskunasining yo'qligini, (14,5%) bino inshootning yo'qligini, (13,6%) tabiiy gaz va elektr energiyasining yetali emasligini, (13,4%) mablag'i yo'qligini, (9,5%) tomorqasining kichikligini yoki yerining unumdor emasligi, (9%) malakasi yetarli emasligini sabab qilib ko'rsatishgan. (5-rasm)

Qo'shimcha daromad topishga to'sqinlik qilayotgan omillar. 5-rasm

Ushbu tahlil natijasiga ko'ra aholining qo'shimcha ish bilan shug'ullanishida to'sqinlik qilayotgan omillarning aksariyati ularning o'z imkoniyatlariga bilan bog'liq emas.


Bu borada davlat va nodavlat tashkilotlari faollik ko'rsatib, aholining ushbu istaklarini ro'yobga chiqarish uchun tashabbuskor bo'lishlari talab etiladi. Lekin, bundan avval fuqarolarimiz ham qo'shimcha ishni boshlashlari uchun davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan qanday yordam kerakligini aniqlab olishlari maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

⁶ <https://docs.google.com/forms/d/1oSLiZ4QdeGvtqSir90fMu-o7AolCcljd2k6q6Cq0pKY/edit?pli=1#responses>

Shu maqsadda, so'rovnoma davomida respondentlarga **"Siz qo'shimcha ish bajarish bilan bog'liq davlat va jamoat tashkilotlaridan qo'llab-quvvatlash bo'yicha nimani kutasiz?"** degan savol bilan murojaat qilindi. (6- rasm)


Olingan natijalarga ko'ra, respondentlarning 20,6 foizi mahallada bo'sh turgan bino inshoot va yer maydonlarini foydalanishga berilishini istaydi, 19,8 foizi tadbirkorlik faoliyatida qog'ozbozlikni yanada kamaytirishni hamda 17,1 foizi berilayotgan kreditlarni naqd pul shaklida berilishi qo'shimcha ishni boshlashi uchun katta imkoniyat bo'lishini ma'lum qilgan.

Shuningdek, 16,3 foiz tadbirkorlik faoliyatiga oid ko'nikmalarini shakllantirish uchun o'qitish va yana 13,5 foizi past foizda ya'ni 7-10 fozli imtiyozli kreditlar berilishini maqul ko'rishgan.



Aholining qo'shimcha ish bajarish bilan bog'liq davlat va jamoat tashkilotlaridan qo'llab-quvvatlash bo'yicha kutuvlari. 6-rasm.⁷

⁷ <https://docs.google.com/forms/d/1oSLiZ4QdeGvtqSir90fMu-o7AolCcljd2k6q6Cq0pKY/edit?pli=1#responses>



- Ҳа биламан. Аммо бу имкониятдан фойдаланмайман.
- Ҳа биламан ва бу имкониятдан фойдаламаман
- Йўқ билмас эдим. Бу имкониятдан фойдалансам бўлар экан
- Йўқ, билмас эдим ва менга буни қизиғи йўқ

Tahlillar natijalaridan ma'lum bo'layotganidek, aholining aksariyati bugungi kundagi berilayotgan imkoniyatlar va imtiyozlardan bexabar. Misol uchun, o'zini o'zi band qilish orqali mehnat stajiga ega bo'lish to'g'risida yetarlicha ma'lumotga ega emaslar. Ya'ni dehqon xo'jaligi va tomorqa yeridan band bo'lgan yoki qoramol, parranda parvarishlayorgan jismoniy shaxslar bazaviy hisoblash miqdorining bir barobari miqdorida sug'urta badali to'langan yil mehnat stajiga kiritilishi belgilangan. (7-rasm).

Aholining o'zini-o'zi band qilish orqali mehnat stajiga ega bo'lish to'g'risida xabardorligi. 7-rasm.⁸

Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki aholini olib borilayotgan islohotlardan bexabar.

Masalan aholidan qo'shimcha daromad topishga to'sqinlik qilayotgan omillar so'ralganda (5-rasm) ularning katta qismi (13,4%) mablag' yo'qligi bildirishgan. Shu kabi muammolarni hal etishga qaratilgan davlat rahbari va hukumatning bir qancha hujjatlari tasdiqlangan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742-son qarori bilan yangi taxrirda 73 ta o'zini o'zi band qiladigan shaxslar uchun faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari tasdiqlanib, Soliq kodeksiga muvofiq o'zini o'zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlari jismoniy shaxslar jami daromadlari tarkibiga kiritilmasligi belgilab qo'yilgan. Aslini olgandanda 73 ta faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari bu juda katta imkoniyat degani. Bu faoliyat (bugungi kunda hududda eng ko'p taklif bo'layotgan ishlar, xizmatlar turlari hisoblanadi).

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishni maqul ko'rdikki o'tkazilgan so'rovnoma tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, aholining katta qismida tadbirkorlik ko'nikmalari yetarlicha rivojlanmagan. Ayniqsa, moliyaviy savodxonlik darajasi qoniqarsiz.

Aholining katta qismi o'zlarida mavjud imkoniyatlarga to'g'ri baho berishmagan va bu borada tasavvurlari yetarlicha shakllanmagan. Shuningdek, joriy etilgan imtiyoz va imkoniyatlardan ham yetarlicha xabardor emas.

Yangicha, noodatiy va innovatsion g'oyalar asosidagi tadbirkorlik faoliyatini boshlashda fuqarolarda ko'nikma va dadillik yetishmayпти.

⁸ <https://docs.google.com/forms/d/1oSLiZ4QdeGvtqSir90fMu-o7AolCcljd2k6q6Cq0pKY/edit?pli=1#responses>



Ayniqsa, ularni tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi qarashlari va ko'nikmalari qoliplik bo'lib, chegaralanib qolgan. Bu esa ulardagi imkoniyat va salohiyatdan samarali foydalanishga, yangi imkoniyatlarni yaratishga xalaqit bermoqda.

“Ma'lumki, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yaqin va uzoq istiqbolga mo'ljallangan, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlashga doir strategik vazifalarni nafaqat ishlab chiqishi, balki amalga oshirishni ta'minlashi zarur”.

Yuqoridagilardan kelib chiqib bir nechta taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Birinchidan: Mahalla fuqarolar yig'ini binosi va ijtimoiy tarmog'ida sohaga oid yangiliklar (imtiyoz va imkoniyatlar) to'g'risida xabarlarini joylashtirib (yangilab) borish, bukletlar va boshqa materiallarni tayyorlab tarqatishni rivojlantirish kerak. Ijtimoiy tarmoqlada tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishga oid qisqa roliklar va ma'lumotlarni joylashtirib borish zarur.

Ikkinchidan: Aholiga muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbai to'g'risida samarali takliflarni taqdim etish kerak. Bu gaz va svet masalasida bo'layotgan to'siqlarni yechimi bo'loladi.

Uchinchidan: Aholining katta qismi mavsumiy ish bilan band bo'lishini hisobga olib, ularning kuz-qish mavsumida ishsiz qolishlarini oldini olish maqsadida mahalliy ijro organlari, Savdo-sanoat palatasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda qish mavsumida aholini bandligini ta'minlashga qaratilgan tadbirkorlik faoliyat turlarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash choralarni ko'rish (masalan: qishki ust-bosh yoki poyabzal tayyorlash, qo'lda turli suvenir yoki dekorativ vositalarni tayyorlash, qishki mavsumga mos yoki mavsum tanlamas jihoz (vosita)larni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish, issiqxona va boshqalar) maqsadga muvofiq.

Qish mavsumiga mos tadbirkorlik faoliyati turlari uchun hukumat darajasida imtiyozlar berish tizimini yo'lga qo'yish.

To'rtinchidan: Xorijdan olib kelinuvchi uy sharoitida foydalanish mumkin bo'lgan kichik uskuna va dastgohlar hamda ularning ehtiyot qismlari uchun soliq va bojxona imtiyozlarini berish orqali mazkur vositalarning tannarxi pasayishiga ta'sir etib, bu oilaviy tadbirkorlikni rivojlanishiga ijobiy ta'sir etishi mumkin.

References:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. 2017
2. 2020-yil 26-martdagi “Iqtisodiyotni kambag'allikni qisqartirishga oid Davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5975-sonli farmoni
3. 2020-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Respublikasi “Iqtisodiy taraqqiyot va mkambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi qarorlar
4. G.M.Shadiyeva “Kambag'allik tushunchasining mohiyati, respublikamizda qambag'allik darajasini pasaytirishning asosiy yo'nalishlari” maqola 2-bet.
5. Shodiyeva, G.M (2006). Uluchsheniye blagosostoyaniya domoxozyaystva: problemy i puti ix resheniya. Monografiya, T.: Fan .



6. G.M.Shadiyeva, Z.Sh.Isoqulov (tezis) "Xalqaro tajriba asosida aholini kambag'allikdan chiqarilishi yo'llari" Samarqand 2022 58-61 betlar.
7. Yangi O'zbekiston" gazetasi 2021.22.12 №258 2-bet.
8. www.kun.uz
9. www.ziyo.uz
10. Методика формирования социального заказа на пассажирские перевозки при проведении конкурса на обслуживание маршрута // Экономика и менеджмент на транспорте: Сб. Научных трудов: СПбГИЭА, 1998 - 0,4 п.л.